

## "Qishloq xo'jaligini energiya ta'minoti" fakul'teti murabbiylar kengashi raisi hisoboti

Hisobotning mazmun-mohiyati bitta bo'lsa ham uning natijasi har xil bo'ladi. Bu borada ba'zi fakul'tetlar o'rnak bo'lsa, ba'zilarida kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Institut yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori R. Choriev dekan o'rinosarlari bilan murabbiylarning hisoboti ham o'ziga xos bo'lishini ta'kidladi. Shuningdek, tarbiya masalasiga kim bo'lishimizdan, qanday vazifada ishlashimizdan qat'i nazar hammamiz mas'ul ekanimizni yoddan chiqarmang, - deya qayd etdi.



2020 yilning 23 iyun kuni institutda 2019-2020 o'quv yilida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlar yuzasidan "Qishloq xo'jaligini energiya ta'minoti" fakul'teti murabbiylari kengashi raisi U.Xaliquzzarovning hisoboti eshitildi. Mazkur hisobot yig'ilishiда fakul'tet dekani boshchiligidagi barcha murabbiylar ishtirok etishdi. Hisobot yig'ilishi ZOOM platformasi orqali masofadan turib amalga oshirildi. Shuningdek, mazkur yig'ilishiда institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori R.Choriev, institut Bosh murabbiyi Z.Ismoilovalar ham ishtirok etdi, institut yoshlar ittifoqi yetakchisi A.Berdimurodov, Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat ma'rifikat bo'lim boshlig'i Z.Xaydarov xamda institut xotin-qizlari qo'mitasi raisi Z.Xafizovalar ishtirok etishdi.



Yakunlangan o'quv yilida "Qishloq xo'jaligini energiya ta'minoti" fakul'tetida yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlarning amalga oshirilganligi holati hamda mazkur yo'nalishda qilingan ishlar sarhisobi bo'ldi. Hisobotda fakul'tet bosh murabbiyi tomonidan yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar, guruh murabbiylarining yil davomidagi faoliyati, karantin sharoitida murabbiylarining talabalar bilan masofadan turib ishlashida erishilgan yutuqlari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida atroflicha ma'lumot berib o'tildi. Hisobot eshitilgandan so'ng jarayon savol-javob tarzida davom etib, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori R.Choriev, institut Bosh murabbiyi Z.Ismoilova, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi boshlig'i Z.Haydarov, institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi A.Berdimurodov tomonidan berilgan savollarga javob berildi. Hisobtyakunidaguruhmurabbiylarining taklifvamulohazalar ieshitildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**